

QONUNCHILIK YANGILIKLARI

“Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonun

(O'RQ-652-son, 01.12.2020 y.) mazmun-mohiyati

Qonun bilan 2019 yil 9 dekabrda qabul qilingan “2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi O'RQ-589-sonli Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

“2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi Qonuniga kiritilgan o'zgartishlarga ko'ra:

Qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orish va baliqni ko'paytirish (yetishtirish) uchun foydalaniladigan suv hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2020 yil uchun belgilangan stavkalardan **50 foizga** pasaytirildi.

2020 yil 1 apreldan 2020 yil 31 dekabrga qadar bo'lgan davrda umumiy ovqatlanish korxonalari alkogol mahsulotini chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im to'lashdan **ozod qilinadi**.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, soliq to'lovchilarga ayrim hollarda soliqlarni, soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlari bo'yicha foizsiz kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati beriladi.

O'zbekistonda ishlab chiqariladigan (xizmat ko'rsatiladigan), **aksiz solig'i solinadigan tovarlarga (xizmatlarga) aksiz solig'i stavkalariga o'zgartishlar** kiritildi.

Soliq kodeksi **3 moddadan iborat 72-bob** bilan to'ldirildi.

Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **2020 yilning alohida sharoitlarida** quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishga haqlidir:

1) ushbu Kodeksda va “2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida”gi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va yig'implar (bundan qo'shilgan qiymat solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno) **stavkalarini o'zgartirish;**

2) ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar, shu jumladan ular bo'yicha bo'nak va joriy to'lovlar hamda **yig'implarni to'lash muddatlarini uzaytirish;**

3) soliq, moliyaviy hisobotlarni va (yoki) soliqlarni hisoblab chiqarish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni, shuningdek ularni taqdim etmaganlik (o'z vaqtida taqdim etmaganlik) uchun javobgarlikni qo'llamaslik asoslari va (yoki) shartlarini **taqdim etish muddatlarini uzaytirish;**

4) soliqlar, penyalar va jarimalarni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish, shuningdek ularni berish ~~tartibi va shartlarini qayta ko'rib~~ **chiqish;**

5) soliqlar, yig'implar, penyalar va jarimalarni to'lash to'g'risidagi talabnomalarni

jo'natish va ijro etish muddatlarini, shuningdek soliqlar, yig'imlar, penyalar, jarimalarni undirish to'g'risida **qarorlar qabul qilish muddatlarini uzaytirish;**

6) soliqlar va yig'imlar bo'yicha (bundan qo'shilgan qiymat solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq mustasno) **soliq imtiyozlarini berish;**

7) soliqlar, penyalar va jarimalarni majburiy undirish choralarini to'xtatib turish.

Shuningdek, soliqlarni, soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlarini to'lash bo'yicha foizsiz to'lashni kechiktirishning yoki bo'lib-bo'lib to'lashni qo'llashning va alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarishning **vaqtinchalik tartibi** belgilandi.

Vaqtinchalik soliq imtiyozlari berilib, **jumladan 2020 yil 1 oktyabrgacha** bo'lgan davr uchun foyda solig'ini hisoblab chiqarishda tijorat banklari tomonidan moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning kreditlari bo'yicha to'lovlarni kechiktirish imkoniyati berilgan davrda hisoblangan va kechiktirilgan foizlar summasi jami daromad tarkibiga kiritilmasligi ko'rsatildi.

Ziyodbek Halimjonov,

Qo'shtepa tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi.

2020-12-16 11:14:32